


## 17. Ayirish (50 – 22)

Yondosh mavzu:  
Kompas

O'nliklar va birliklar  
xona birliklari.



To'plamda qaysi shakl yo'q?



1. Yechishni tushuntiring.

$$\begin{array}{c} \text{---} \\ \text{---} \end{array} = \begin{array}{c} \text{---} \\ \text{---} \end{array} = \begin{array}{c} \text{---} \\ \text{---} \end{array}$$



$$\begin{aligned} 5 \text{ o'nl.} - 2 \text{ o'nl. } 2 \text{ birl.} &= \\ = 4 \text{ o'nl. } 10 \text{ birl.} - 2 \text{ o'nl. } 2 \text{ birl.} &= \\ = 2 \text{ o'nl. } 8 \text{ birl.} & \end{aligned}$$

2. Misollarni grafik ko'rinishda yeching.

$60 - 27$

$40 - 14$

$70 - 39$

$80 - 46$



3. Sinfga 30 ta kompas sotib olindi. 8 ta kompasni 1-qatorga, 9 ta kompasni 2-qatorga tarqatishdi.  
Uchinchi qatorga nechta kompas qoldi?




4. Jadval yordamida masala tuzing. Daftaringizga uning yechimini yozing.

Bor edi	Sotildi	Qoldi
$(21 + 29)$ 	14 	?



5. Kompasda dunyo tomonlari quyidagicha belgilangan:  
**Sh** – shimol,  
**Shq** – sharq,  
**J** – janub,  
**G'** – g'arb.



ShG', ShShq, JG', JShq qisqartmalari nimani bildiradi?



6. Daftaringizga uzunligi 8 cm bo'lgan ZV kesma chizing. Unda *M* nuqtani belgilang. Shu nuqta orqali *TB* kesma o'tkazing. Qanday burchaklar hosil bo'ldi?



7. Ko'chirib yozing va taqqoslang.

$$\begin{array}{ll} 60 - 45 & \boxed{\phantom{0}} \\ 14 + 5 & \\ 18 + 12 & \boxed{\phantom{0}} \\ 50 - 20 & \end{array}$$

$$\begin{array}{ll} 50 - 16 & \boxed{\phantom{0}} \\ 22 + 12 & \\ 51 - 21 & \boxed{\phantom{0}} \\ 31 + 2 & \end{array}$$



8. Karim Yer sayyorasi haqidagi 90 sahifali kitobni o'qimoqda. Karim kitobning 57 ta sahifasini o'qib chiqdi. U yana necha sahifa o'qishi kerak?



9. Namuna bo'yicha teskari misollar tuzing.

*Namuna:*

$$\begin{array}{l} 50 - 23 = 27 \\ 23 + 27 = 50 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 50 - 27 = 23 \\ 27 + 23 = 50 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 40 - 15 \\ 90 - 45 \\ 80 - 27 \end{array}$$